
BILASIZMI?



Bilasizmi?

“Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko‘ra;

2023 yil 1 avgustdan soliq to‘lovchilar tomonidan yoshidan qat‘i nazar farzandlarining O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olishlari uchun yo‘naltiriladigan to‘lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritiladi. Ushbu tartib ta‘limning barcha bosqichlari — maktabgacha, maktab va oliy ta‘lim tizimiga joriy etiladi;

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etiladi;

“Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro‘yxati to‘g‘risida”gi qonun bekor qilinadi;

2024 yil 1 yanvardan ma‘muriy sudlarga shikoyat qilishda fuqaro va tadbirkorlardan davlat bojini undirmaslik, bunda davlat bojini ishni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha aybdor tarafdin undirish tartibi joriy etiladi;

2023 yil 1 iyundan chakana savdo va xizmat ko‘rsatish ob‘ektlarining faoliyat ko‘rsatish vaqtiga nisbatan cheklolvar bekor qilindi.

Raxmonov Iskandarbek Dilshodjon o‘g‘li - Farg‘ona shahar adliya bo‘limi bosh maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-01 18:29:41